

**MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANISHIGA YO‘NALTIRILGAN
MASHQLAR TIZIMI**

Xalilova Zilola Zamirovna

Qarshi davlat universiteti, 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning xotira va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga mo‘ljallangan bir nechta mashqlarni quyida keltirib o‘tilgan va ulami qaysi darslarda foydalanish mumkinligi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: emotsiyonal holat, assotsiatsiya, mashq, xotira.

Bolalarning xotira va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga mo‘ljallangan bir nechta mashqlarni quyida keltirib o‘tamiz. O‘quvchilarda bunday qobiliyatlarni rivojlantirilishi o‘quv matnlarini ma’no jihatidan qayta ishlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Matn rejasini tuzish uchun, uning har bir qismidan asosiysini ajrata bilish, assotsiatsiyalarni topish, ularni eslab qolish kerak.

Bunday mashqlarni turli darslarga kiritish mumkin, ular ko‘p vaqt ni olmaydi. Lekin ularga shu darsning o‘zida yoki keyingi darsga qaytish lozim bo‘ladi. Bolalar nima o‘ylab topganlarini eslashlari va yana bir marta o‘z javoblarini daftarlariiga yozishlari kerak bo‘ladi, xotira shu tarzda rivojlantiriladi.

Holatda kelib chiqib, bu mashqlarni bajarishda musoboqa elementini kiritish ham mumkin: masalan, kim ko‘p to‘g‘ri javobni keltirdi, kim tez hisobladi va shu kabilar. Buni faqat ehtiyyotlik bilan olib borish kerak: oldingi o‘rinda har doimgi bolalar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Bolalarni erishgan yutuqlarini taqqoslashga o‘rgating, bolani har bir oldinga qarab siljishini u sezilarli bo‘lmasada qayd eting. Bolalar uchun har doim muvaffaqiyatli holatni tashkil etish lozim.

Darslarda ijobiy emotsiyonal holat – bu yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatli ta’lim olishi va rivojlanishidagi asosiy faktorlardan biridir.

“Nima nimaga o‘xshaydi” mashqi?

O‘qituvchi doskada 10 ta so‘zni yozadi. Bolalarga ularning ma’nosiga bog‘liq so‘zlarni o‘ylab topish vazifasi beriladi.

O‘qituvchi. Chiziqdan yuqoridagi so‘zni o‘qing va bu so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan predmet yoki holatlarni eslang. Masalan, belkurak so‘zini o‘qiganingizdan keyin, u qanday ko‘rinishga egaligini eslang hamda qanday rangda bo‘lishi mumkinligini, nima uchun mo‘jallanganligi haqida o‘ylab ko‘ring. Sizningcha bu so‘zga mos va yaqin bo‘lgan so‘zni tanlang hamda uni chiziq pastidan yozib qo‘ying.

Daftarga yozish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Har bir so‘z juftligi kasr shaklida yoziladi: yuqorida o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan so‘zlar, pastda o‘quvchi tomonidan taklif etilgan so‘zlar. O‘qituvchi bitta so‘z ustida mulohoza yuritadi.

Topshiriq bajarilgandan so‘ng o‘quvchilar o‘zlarini bajargan ishlarini o‘qib berishadi, so‘zlar to‘g‘ri topilganligi yuzasidan muhokoma olib boriladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘ylab topilgan so‘zlarni eslab qolish haqida topshiriqni beradi.

Keyingi darsda o‘quvchilar bu so‘zlarni eslashlari va yana bir marta daftarga yozishlari kerak.

“Shifrlangan sonlar” mashqi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga shifrlangan ikki xonali sonlarni yozmasdan turib, shifrini ochishni va eslab qolish haqidagi topshiriqni berdi. Bu mashqni o‘yin sifatida bajarish mumkin.

Doskada shifrlangan son va kalit yoziladi.

VA MK VO KE ST IO

Kalit

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	M	V	YE	K	O	S	I	P	T

O‘qituvchi. Sizlar bilan razvedkachilar o‘yinini o‘ynaymiz, ya’ni biz harflar yordamida berilgan sonlarni shifrini ochishimiz kerak. Razvedkachilarning xotirasi

juda yaxshi bo‘lishi lozim. Ular ko‘p narsani xotirasida saqlashi kerak, lekin iloji boricha hech narsa yozmasligi lozim. Agar biror narsa yozish kerak bo‘lsa ham, juda muhim ma’lumotlarni shifrlar orqali ifodalashlari kerak, chunki bu qanaqa ma’lumot ekanligini hech kim bilmasligi lozim. Doskada harflar orqali oltita son yozilgan. Kalit yordamida qanday sonlar yozilganligini toping. Ularni eslab qoling, bu sonlarni yozish mumkin emas. Bu topshiriqni bajarish uchun bir minut vaqt ajrtildi. Shundan so‘ng bolalar javob berishadi.

Shu darsning oxirida bolalarga shifrlari ochilgan sonlarni yana bir marotoba eslashni taklif qilinadi.

Eslatma: agar bolalar uchun oltita sonni eslab qolish qiyinlik qilsa, to‘rtta sondan boshlash kerak bo‘ladi.

“Shifrni oching va eslab qoling” mashqi.

O‘quvchilarga yettita shifrlangan so‘z va kalit taqdim qilinadi. So‘zlarni shifrini ochish, ularni eslab qolish va ortiqcha so‘zlarni ajratib ko‘rsatish kerak. Bu mashqni ham oldingisi singari o‘yin shaklida o‘tkazish mumkin.

Kalit

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
I	t	k	z	R	a	b	o‘	u	ch

6740	434675	6849	674
183	48925	521290	

O‘qituvchi. Hozir biz sizlar bilan yana razvedkachilar o‘yinini o‘ynymiz. Kalit yordamida so‘zlarni ochishni o‘rganamiz. Bu so‘zlarni o‘qing va eslab qoling. Ularni hozircha yozish shart emas. O‘ylab ko‘ring va bu yerda qaysi so‘z ortiqcha ekanligini ayting. Bu topshiriqni bajarish uchun sizlarga ikki-uch minut ajratiladi.

Bolalar topshiriqni bajarishadi, ortiqcha so‘zni aniqlashib, nima uchun u ortiqcha ekanligi haqida bahslashishadi. Shundan so‘ng o‘qituvchi bu so‘zlarni daftarga yozib, eslab qolishlarini aytadi.

Shu darsning so‘ngida yoki keyingi darsda bu mashqqa qaytish kerak bo‘ladi. Bolalardan daftarga qaramasdan turib, shifri ochilga so‘zlarni eslash aytish so‘raladi.

“Tanish maqol” mashqi

O‘quvchilarga shifrlangan maqollar taklif etiladi: unda har bir maqol ikkita qismga ajratilgan, ularning har birining o‘z kaliti mavjud. O‘quvchilar maqolni to‘liq aniqlab, shifrini ochishlari kerak bo‘ladi. Doskada kalit yozilgan.

Kalit:

- 0 – bir kes...
- 1 – nima eksang...
- 2 –sanaydilar...
- 3 – oltin hisoblanavermaydi...
- 4 – temirni ...
- 5 – jo‘jani kuzda...
- 6 – issig‘ida bos...
- 7 – shuni o‘rasan...
- 8 – hamma yaltragan narsa...
- 9 – yetti o‘lchab...

O‘qituvchi. Yana bir marta sizlar bilan biz shifrlarni ochishga harakat qilamiz. Dastlab siz bu yerda qanday maqollar shifrlanganligini bilishingiz. Har bir maqol ikki qismdan iborat, shu sababli ikkita raqam bilan shifrlangan bo‘lishi kerak. Maqolni ikki xonali son ko‘rinishida shifrlang. Bu raqamlarni daftaringizga yozing. Bu topshiriqni bajarishingiz uchun sizlarga uch minut vaqt ajratiladi.

O‘quvchilar topshiriqni bajarishadi, so‘ngra javoblar muhokoma qilinadi. Albatta maqollarning ma’nosiga to‘xtalib o‘tish lozim, ularni birgalikda tushuntirish kerak. O‘qituvchi bu sonlarni eslab qolish kerakligini aytadi.

To‘g‘ri javoblar: 17, 46, 52, 83, 90.

Darsning so‘ngida o‘qituvchi bolalardan dastlab ikki xonali sonni, so‘ngra shifrlangan maqolni eslashlarini so‘raydi.

“Antiqa misollar” mashqi.

Bu mashqda ham bundan oldingi jadval-kalitdan foydalaniladi. U doskada yozilgan bo‘lishi kerak. Bolalar noodatiy holda yozilgan misollarni yechishadi.

Nima eksang+issig‘ida bos = ?

Yetti marta o‘lchab : oltin hisoblanavermaydi = ?

Temirni issig‘ida x nima eksang = ?

10: jo‘jani kuzda = ?

Temirni issig‘ida bos – Hamma yaltiragan narsa oltin hisoblanavermaydi = ?

Yetti marta o‘lchab bir kes – jo‘jani kuzda sanaydilar = ?

O‘qituvchi. Siz shifrlangan misollarni yechishingiz kerak. Dastlab uni kalit yordamida shifrini ochib, so‘ngra yeching. Javoblarni daftarlaringiz yozing.

Bolalar topshiriqni bajarishib, javoblarni tekshirishadi. O‘qituvchi javoblarni eslab qolishlarini so‘raydi. Shu darsning oxirida yoki kelgusi darsda ular to‘g‘ri javobni eslashadi.

“Asosiy belgi” mashqi.

Bolalarga doskada yozilgan o‘nta so‘zdan belgi-so‘zni tanlash taklif qilinadi.

O‘qituvchi doskada turli o‘nta so‘z yozilgan. Ularni o‘qing va har biriga to‘g‘ri keladigan belgi-so‘zni tanlang. Belgi-so‘z predmetning xossasini aniqlaydi va qanday? - degan savolga javob beradi. Masalan, qum sariq, issiq, mayda va boshqa bo‘lishi mumkin. sizningcha eng yaqin bo‘lgan belgi-so‘zni tanlang va uni chiziq tagiga yozing.

Daftarga yozish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: so‘zlar juftligi kasr shaklda yozilib – tepada o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan so‘zlar, pastda – o‘quvchi tomonidan taklif etilayotgan so‘zlar. O‘qituvchi bitt misolni muhokoma qiladi.

O‘quvchilar topshiriqni bajarishadi. So‘ngra o‘quvchilar yozgan so‘zlar muhokoma qilinadi. Sinf bilan birgalikda belgi-so‘zlar to‘g‘ri tanlanganmi yoki yo‘qligi muhokoma qilinadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga bu so‘zlarni va ularga tanlangan belgi-so‘zlarni eslab qolish haqidagi topshiriqni beradi.

Keyingi darsda o‘qituvchi so‘zlarni juft-jufti bilan va ularga tanlangan belgilarni eslashni, ularnidraftarga yozishni, so‘ngra oldingi darsda yozgan yozuvlari bilan solishtirishni so‘raydi.

“Uchinchi so‘z” mashqi.

O‘qituvchi bir-biri bilan ma’no jihatida bog‘liq olti juft so‘zni o‘qiydi. Har bir juftlikka ma’no jihatidan mos uchinchi so‘zni tanlash va uni daftarga yozish kerak.

O‘qituvchi. Endi men sizlarga so‘z juftliklarini o‘qiyman. Har bir so‘z juftligi o‘zaro ma’no jihatidan bog‘langan. Siz shunday so‘zni tanlangki u ma’no jihatidan ular bog‘liq bo‘lsin va uni daftaringizga yozing.

Tovuq – tuxum (mumkin bo‘lgan javob: jo‘ja).

O‘rmon – daraxt (mumkin bo‘lgan javob: taxta).

Gul – kapalak (mumkin bo‘lgan javob: gulzor).

Daryo – qayiq (mumkin bo‘lgan javob: eshkak).

Kitob - bet(mumkin bo‘lgan javob: rasm).

Yo‘l – mashina (mumkin bo‘lgan javob: haydovchi)

Vazifa bajarilgandan so‘ng bolalar tomonidan javoblarning muhokomasi olib boriladi. O‘qituvchi ushbu so‘z juftliklarini va o‘ylab topilgan so‘zlarni eslab qolish haqidagi topshiriqni beradi.

Darsning oxirida o‘qituvchi bolalarga olti juft so‘zni va ularga nisbatan o‘ylab topilgan so‘zlarni eslashni taklif qiladi.

Keyingi darsda o‘qituvchi o‘quvchilarga har bir juftlikdan birinchi so‘zni o‘qib, ikkinchi va o‘ylab topilgan so‘zni eslashni hamda ularni daftarga yozishni so‘raydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хрестоматия по возрастной психологии: Учебное пособие для студентов / Сост. Л.М. Семенюк; Гл. ред. Д.И. Фельдштейн. – М.: MODEK, 1998. – S. 210.
2. Обухова Л.Ф. Детская психология: теории, факты, проблеми. – М.: Тривола, 1995. – С. 192
3. Пиаже Ж. Реч и мышление ребенка: Пер. с франс. и англ. / Сост., коммент., ред. перевода Вал. А. Лукова, Вл. А. Лукова. – М.: Педагогика-Пресс, 1994. – С. 235.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Уч. пос. – М.: Народное образование, 1998. – С. 102.